

YONILG‘I MOYLASH MATERIALLARI FANINI O‘QITISHDA AMALIY VA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARNING TUTGAN O‘RNI.

*Keldiyorov Rafiq Normurodovich-Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
“Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalar” kafedrası assestanti.*

E mail: rafiqkeldiyorov1991@gmail.com

*Xomuminova Shaxnoza Gulyam qizi- Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar
instituti “Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalar” kafedrası
stajyor-o‘qituvchisi.*

Annotatsiya: Yonilg‘i moylash materiallari fanini o‘qitishda laborotoriya va amaliy mashg‘ulotlar muhim rol o‘ynaydi. Ularning ahamiyati shundaki, o‘quvchilar nazariy bilimlarni amalda qo‘llashga, tajriba o‘tkazishga, yuz berayotgan jarayonlar, hodisalar, ustida kuzatish olib borish, ularning natijalarini tahlil qilish, mustaqil ravishda umumlashtirish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga o‘rganishadi.

Kalit so‘zlar: Laborotoriya, amaliy mashg‘ulot, talaba, yondashuv, o‘quv jarayoni, ko‘nikma, texnik xodim, ustaxona.

Dars jarayonlarini tashkil etishda ma‘ruza bilan birgalikda amaliy mashg‘ulot ham o‘quv jarayonining asosiy shakllariga kiradi. Uning muhim xususiyatlaridan biri o‘rganilayotgan masalalarni har bir o‘quvchi-talaba tomonidan teng huquqlik asosida muhokama qilishda faol qatnashish imkoniyatiga egaligidir. Bu jarayonda o‘quvchi-talabalarning o‘qishga yondashuvi muhim ahamiyatga ega. O‘qishga yondashuvni Buyuk Britaniyalik tadqiqotchilar uch guruhga ajratishadi: **yuzaki, chuqur, strategik yondashuv.**

Yuzaki yondashuv – topshiriqni tezda bajarishga, ma‘lumotni mazmuniga ahamiyat bermay eslab qolishga intilish, mavjud bilim va yangi fikrlarni ajratmaslik, topshiriqni majburlab berilgandek yuzaki bajarishni ifodalaydi.

Chuqur yondashuv – tushunishga intilish va ma‘no izlash g‘oyani mavjud tushunchalarga bog‘lashni, mavjud bilimlar va yangi fikrlarni ajratishga harakat qilish, hamda asosiy mavzu va tushunchalarni tanqidiy baholash va aniqlashni o‘zida mujassamlashtiradi.

Strategik yondashuv - (maqsadga erishishga intilish). Bu yerda o‘qish, o‘rganish, imtihonda yuqori baho olish maqsadi uchun qaratilishiga urg‘u beriladi.

Amaliy mashg‘ulotlar–bu o‘quv mashg‘ulotining asosiy turi bo‘lib, o‘quv va amaliy ko‘nikma, amalda qo‘llash, tajribani shakllantirishga qaratilgan. Amaliy mashg‘ulotlarning ayrimlari ko‘rgazmali tarzda ifodalanib, nazariy materiallarni qayta shakllantiradi va uni amalda qo‘llashni o‘rgatadi. Ma‘lum bir toifa amaliy mashg‘ulotlar nazariy materiallarni qo‘llash va mashqlar bajarishning asosiy

uslublarini egallash uchun qo'llaniladi. Amaliy mashg'ulotlarda mustaqil ishlarni bajarish, darsga tayyorgarlik ko'rish muhim ahamiyatga ega bo'lib, katta ulushni tashkil etadi.

Amaliy mashg'ulot keng ma'noda turli amaliy mashg'lotlar, seminar (uning barcha turlari), amaliy mashq, laboratoriya ishi kabilarning umumiy holda ifodalanishidir.

Odatda amaliy mashg'ulotlar ma'ruzadan so'ng, ya'ni ularni bajarish uchun nazariy asos yaratilgandan keyin o'tkaziladi.

Laboratoriya mashg'uloti – bu o'quvchi-talabalar o'qituvchi topshirig'iga binoan asbob-uskunalar, priborlar, maxsus jihozlar, turli texnik moslamalar yordamida har xil tajribalar o'tkazishga qaratilgan dars, ya'ni ta'lim oluvchilar tomonidan voqea-hodisa, jarayonlarni maxsus asbob-uskunalar yordamida o'rganishga qaratilgan mashg'ulot.

Bu mashg'ulotda o'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bo'yicha asboblardan foydalanib, biror hodisani reja asosida tadqiq etadilar. Amaliy mashg'ulotlarda mavzuning yirik qismlari o'rganiladi. Bu umumlashtiruvchi tarzda bo'ladi. Mazkur ish faqat auditoriyada emas, balki auditoriyadan tashqarida ham amalga oshiriladi.



Laboratoriya mashg'ulotlari - bu o'qituvchi rahbarligida va belgilangan reja asosida yangi bilim bo'yicha tajriba o'tkazish jarayonida amalga oshiriladigan aniq amaliy vazifalardir.

Yangi bilimni egallash bo'yicha o'tkaziladigan laboratoriya mashg'uloti quyidagi metodlar orqali amalga oshiriladi:

- mashg'ulot mavzuini va amalga oshiriladigan vazifalarni aniqlash;
- mashg'ulot tajriba-bosqichlarini aniqlab olish;
- mashg'ulotning borishini, ishning texnik xavfsizlikka rioya qilingan holda bajarilishini kuzatib borish;
- mashg'ulotni yakunlash, asosiy hulosani bayon etish.

Laboratoriyada o'tkaziladigan mashg'ulot-tajriba o'quvchilarning hozirgi davrdagi ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini, tajribada qo'llanadigan asboblarga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmasini, texnik bilimni egallab olishlariga zamin yaratadi.

LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH TARTIBI

Laboratoriyaning texnik xodimlari dars boshlanishidan bir necha kun oldin darsning umumiy konsepsiyasiga muvofiq uning maqsadga muvofiqligini amaliyotda tekshiradilar. Asosiy vazifa-uskunaning ishlashini va uning texnik tavsiflarining belgilangan standartlarga muvofiqligini tekshirish, shuningdek, asboblarning mavjudligi va tayyorligini tekshirish. Tekshiruv davomida ishlash xususiyatlari va texnologiya holati qayd etiladi. Tekshirish natijalari dars rahbariga xabar qilinadi. U bilan kelishilgan holda, texnologiyadan amaliy foydalanishning aniqlangan xususiyatlarini hisobga olgan holda laboratoriya mashg'ulotlarini boshlash mumkin. Tegishli hujjatlarga kiritilgan o'zgarishlarni aks ettirgan holda, barcha o'quv guruhlari uchun tuzatishlar kiritish tavsiya etiladi.

O'quv guruhlarida laboratoriya mashg'ulotlarini muhandis-texnik xodimlarni jalb qilgan holda bir yoki ikkita o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi mumkin. Laboratoriya ustaxonasida ishlash talabalarning individual o'quv faoliyatini ham, tadqiqot guruhlari, observatoriya guruhlari ishini ham qamrab olishi mumkin, bu esa yanada kengroq va maqsadli tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradi. Tadqiqot guruhi talabalarning mustaqil birlashmasi (3-5 kishi) bo'lib, u talabalarning individual imtiyozlarini va muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini hisobga olish tamoyiliga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intozom va shaxsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent, O'zbekiston, 2017.-104 b.
2. Oliy ta'lim. Me'yoriy –huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami. Toshkent, "Istiqlol", 2013.
3. Mavlonova R., To'raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika.-Toshkent: "O'qituvchi", 2001.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-Toshkent: TDPU, 2003.
5. Xodjabaev A.R., Xusanov I. Kasb ta'limi metodologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Aloqachi", 2007.